



Yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun 3-kunlik o'quv-seminar trening 2024-yil 26-28-fevral



“O‘zkiyosanoat” AJda tizim korxonalari yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun o‘quv seminari birinchi kuni:

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Jamshid Zikirov yosh xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish borasida ma‘ruza qildi.**
- **Yoshlar ishlari agentligi mutaxassisi Nilufar Matkarimova yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida agentlik tomonidan olib borilayotgan loyihalar, imtiyoz va imkoniyatlar haqida batafsil ma‘lumot berdi.**
- **Jurnalist, mediatrener Muhayyo Saidovanning mediasavodxonlikni oshirish bo‘yicha qilgan ma‘ruzasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Mutaxassis yoshlarga informatsion xurujda rost va yolg‘on axborotni farqlay olish, axborotdan foydalana olish madaniyati, tanqidiy fikrlash, reklama va piar sohasidagi bilimlari bilan o‘rtoqlashdi.**



Yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun o‘quv seminarining 2-kuni:

- Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti professori Tohir Shodiyev yoshlarga “Vaqtdan samarali foydalanishni shakllantirish texnologiyalari – taym menejment” mavzusida ma’ruza qildi.
- Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti professor-o‘qituvchisi Ra’no Axmedova “Liderlik xislatlarini rivojlantirish texnologiyalari” mavzusida bilimlar berishdi.
- Ushbu institutning yana bir professor-o‘qituvchisi Nozima Minbayeva "Inson psixologiyasi, nizoli vaziyatlarni va xodimlararo munosabatlarni boshqarish kabi zarur zamonaviy bilim va ko‘rinmalari" mavzusi bilan o‘rtoqlashdi.
- Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig‘i Sherzod Olimov "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar va bu tadbirlarda yoshlar faolligini oshirishning ahamiyati haqida so‘zlashdi.



“O‘zkimyosanoat” AJda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan uch kunlik o‘quv seminarining uchinchi kuni:

- **“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining ma’naviy-ma’rifiy ishlar va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova “Yoshlar ishlari bo‘yicha maslahatchining tashqi imiji va ma’naviy qiyofasi. Yoshlar bilan ishlashda kasbiy axloq tamoyillari” mavzusida suhbat o‘tkazdi.**
- **Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i o‘rinbosari Bexzod G‘afurov yoshlar maslahatchilarining ish faoliyatini jamiyat biznes-rejasida to‘g‘ri aks etilishi borasida ma’ruza qildi. Yoshlar maslahatchilari uchun tadbir, tanlovlarni tashkil etishda zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan o‘rtoqlashdi.**
- **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi Muhammadali Asrorov bilan yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari mavzusida suhbat bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.**
- **Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashlari tomonidan yoshlarga oid davlat dasturining bajarilishida “Eng faol tashkilot” sifatida topilgan “Maxam-Chirchiq” AJning boshqaruvi raisi yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Ro‘zmat Baydullayev ham so‘zga chiqib, o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashdi. Yoshlar maslahatchilari uchun tashkiliy masalalarda tavsiya va maslahatlarini berib o‘tdi.**
- **Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi Doniyor Ahmedov ishtirokchilar bilan iqtidorli yoshlarni aniqlash haqida suhbat qurdi. Zamonaviy, yosh mutaxassis uchun muhim ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar bo‘yicha o‘z bilimlari bilan bo‘lishdi.**

